

ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA MILLIY OZODLIK G‘OYASINING BADIY TALQINI

Bekzod G‘aniyev Baxronovich

Xatirchi tumani 22-maktabning oliy toifali o‘qituvchisi

Ganiyevbekzod34@gmail.com

***Annotatsiya.** Erkin Vohidov ijodi mavzu, g‘oya tomonidan ham, uslub, janrlar xilma-xilligi jihatidan ham nihoyatda tahliltalab. Shoir ijodining g‘oya va mazmuni nihoyatda boy. Muallif ijod namunasida ko‘plab dolzarb adabiy va abadiy muammolar bayonini anglashimiz mumkin. Shulardan biri milliy ozodlik masalasi hisoblanadi. Maqolada ayni shu – ozodlik motivi haqida mulohazalar bayon etildi. Shoir dostonlarida ushbu mavzuning ifodalanishi misollar yordamida tahlil etildi.*

***Kalit so‘zlar:** motiv, mavzu, talqin, leytmotiv, xarakter, peyzaj, detal, jadid adabiyoti, ozodlik, qo‘shiq, muqaddima.*

***Annotation.** Erkin Vahidov’s work is highly analyzed in terms of subject, idea, style, variety of genres. The ideas and content of the poet’s work are extremely rich. In the example of the author’s creativity, we can understand the statement of many topical and eternal literary problems. One of them is the issue of national liberation. In the article, thoughts and opinions about the motive of freedom were expressed. The expression of this topic in the epics of the poet was analyzed using examples.*

***Key words:** motive, theme, interpretation, leitmotif, character, landscape, detail, modern literature, freedom, song, introduction.*

KIRISH

Shaxs erki va ozodlik g‘oyasi adabiyotning muhabbat kabi qadimiy va azaliy mavzularidan biridir. Muqaddas Hadisi sharifimizdan tortib, xalq og‘zaki ijodida uchraydigan hikoyatlarning katta qismi, xalq maqollari, hind xalq eposi “Kalila va Dimna”ning ko‘pchilik hikoyatlari ayni shu mavzu xususida bahs yuritadi. XVIII asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Gulxaniyning “Zarbulmasal”idan o‘rin olgan “Tuya bilan Bo‘taloq” masalida erk va ozodlikning qimmatini naqadar baland ekanligi majoziy obrazlar vositasida juda ta’sirchan ifodalangan. Ustiga og‘ir yuk ortilgan tuya oldinga intiladi, ortidan kelayotgan bo‘talog‘i unga yetolmaydi. Shunda u onasiga nola qiladi. Ona tuya esa erksiz ekanligini, jilovi oldinda borayotgan kishi qo‘lidaligi, ammo u ham boshqa bir xo‘jayinga tobeligini aytadi.

Keyingi asrlarda ham bu mavzu adabiyotda yetakchi mavzulardan bo‘lib keldi. XX asrda shaxs erki va ozodlik g‘oyasining falsafiy, ijtimoiy-axloqiy mazmuni kengayib, siyosiy motivlar kuchaydi, butun bir xalqlar va millatlarning erk va ozodlikka intilishlari kuylana boshlandi. Osiyo va Afrika qit‘asidagi mamlakatlarni o‘z mustamlakalariga aylantirgan inglizlar, fransuzlar, ispanlar, portugallar zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari avj ola boshladi. Ozodlikni kuylash, milliy uyg‘onish va milliy vatanparvarlik g‘oyasi adabiyotning kurashchan ruhini oshirdi, badiiy tafakkurning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘rifiy taraqqiyotga ma‘naviy ta‘sirini kuchaytirdi. Muhammad Iqbol, Nozim Hikmat, Rabindranat Takur she‘riyati XX asr badiiy tafakkuriga juda katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ularning asarlarida kuylangan milliy erk, ozodlik tuyg‘ulari badiiy ifodasi dunyo bo‘ylab tarqaldi, yangi-yangi ozodlik kuchilarini maydonga keltirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tahlil etish, mazmunini ochib berishda atoqli adabiyotshunos olimlar I.G‘afurov, U.Normatov, I.G‘aniyev, M. Qo‘chqorovalarning nazariy qarashlari, internet saytlarida mavzuimizga dahldor fikrlarga, muallif asaridan olingan she‘riy parchalarga, yozuvchi, nosir, tanqidchi A. Muxtor mulohazalariga e‘tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma‘ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi. Dostonlarda keltirilgan she‘riy parchalar orqali maqola mazmuni ochib berishga harakat qilindi.

O‘zbek adabiyotida milliy ozodlikni kuylash o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ldi. O‘zbek xalqi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanib qoldi. XX asrning boshlarida jadidlar milliy zulm va istibdodga qarshi bosh ko‘tarib chiqdilar va xalqni milliy uyg‘onishga, o‘z erki va ozodligi uchun kurashga chorladilar. Istibdod iskanjasida bo‘lgan xalqni ozodlik uchun kurashga da‘vat etishda ma‘rifatparvar shoir va yozuvchilarimiz turli vositalar va usullardan foydalandilar. Fitratning “Hind ixtilolchilari”, “Munozara” asarlarida hind xalqining ingliz mustamlakachilari tomonidan jabr-zulm chekayotgani ifodalangan bo‘lsa ham, aslida Turkiston o‘lkasidagi xalqlarning ayanchli ahvoli o‘z aksini topgan edi. Keyin ham yozuvchi va shoirlarimiz erk va ozodlik haqidagi orzu-umidlarini xorijiy mamlakatlarda o‘z millati va xalqi erk-huquqi uchun kurashgan va shu yo‘lda jonlarini fido qilgan qahramonlar obrazlarini yaratish orqali ifodalab keldilar. Ana shunday asarlar sirasiga Erkin Vohidovning 1979 yilda yaratgan “Ruhlar isyoni” dostoni ham kiradi.

“Gapning ochig‘ini aytganda, men Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonini muallif o‘zi o‘qiganda ikki bor eshitdim. Necha-necha marotaba uni qayta-qayta

o‘qdim. Har o‘qiganimda o‘zim uchun qandaydir yangilik olaman. Menga u ko‘p jihatlardan bugungi o‘zbek she‘riy tafakkurining-lirik tafakkurining cho‘qqisi bo‘lib ko‘rinadi. Bunda so‘zlar shu qadar g‘uborsiz, tiniq va sof alanga bo‘lib yonadi. So‘zlarning shu musaffo alangalari tafakkur teranliklarini yoritadi. Faqat men aytamanki, bu dostonni shoshmasdan, hech qachon shoshmasdan va hatto hijjalab o‘qish kerak” [3;44], deydi adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov. Bu fikrlarning qanchalik haqiqat ekanligiga imon keltirish uchun dostonni qo‘lga olish va bir qur unga nazar solish darkor.

Asarning bosh qahramoni Nazrul Islom – bengal shoiri. U o‘z she‘rlarida haqiqatni kuylaydi, ona xalqini ozod ko‘rishni istaydi, shuning uchun uning yozganlari isyon ruhi bilan sug‘orilgan. Shoirlikni u shunday tushundi: elning dardi bilan yonmaslik, unga najot berolmaslik, biror mushkuliga yaray olmaslik har qancha zo‘r iste‘dod bo‘lmasin, hech kimga kerak emas. haqsizlikka, erksizlikka hamma ko‘nishi mumkin, ammo shoir xalqi ko‘nmaydi, uning yuragi isyon o‘ti bilan doim lovillab yonib turadi. Nazrul Islom shunday shoir, u xalqini ozod ko‘rish niyatida o‘zining butun hayotini kurashga bag‘ishladi, shu yo‘lda fido bo‘ldi va milliy qahramonga aylandi. Dostonni tahlil etar ekan, munaqqid Umarali Normatov uni falsafiy doston deydi va “...muallif Nazrul Islom jasorati, fidoyiligi, fojeiy qismati bahonasida shoirning, umuman ijodkorning hayotdagi o‘rni, fuqarolik burchi, qolaversa, insoniylik, fidoyilik, erk tashnaligi, ijtimoiy va ma‘naviy hayotning boshqa xilma-xil muammolari ustida o‘y-mushohadalarga toladi” [1;27]., deb ta‘kidlaydi.

“Isyon qo‘shig‘i” bobida Nazrul Islom tilidan erk va ozodlikning qadr-qimati ulug‘lanadi, shoir xalqining ozodligi uchun o‘zini fido qiladi, xalqni shunga da‘vat etadi:

Qo‘zg‘al,
Ulug‘ bobolarning
Pok ruhi uchun.
Erk bongin ur,
Sen intiqom-
Tablin baland chal.
Tug‘ilgansan ozod,
mudom
Ozod bo‘lib qol¹ [2;381].

¹Воҳидов Эркин, Садоқатнома, Сайланма, II жилдлик, иккинчи жилд, (достон юзасидан барча мисоллар ушбу нашрдан олиниб, саҳифаси кўрсатилади)Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 й. Б.381.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Dostonning ilk misralarini o'qigandanoq kishi uning sehriga, qudratiga asir bo'ladi, maftun bo'ladi, so'zlar tashiyotgan fikrning salmog'i, zalvori, ta'sirchanligiga lol qoladi. Muqaddimadayoq shoirning bosh estetik maqsadi ayon bo'ladi. Bu ozodlikning qadr-qimmatini ulug'lash, istibdodning odamzod boshiga solgan g'amu kulfatlarini qoralash, ozodlik yo'lida fido bo'lganlarni sharaflashdir. Shodlik va quvonchdan ko'ra g'ami ko'p bu dunyoda yana bir dard borki, bu dard shoir qalbini qiynaydi, undan aslo qutulib ketolmaydi, hatto bu dunyoni tark etib ketganida ham ruhi bilan birga yashaydi:

Bu – shoirning dilin ezgan
Istibdodning dardidir.
Yurakdan qon bo'lib sizgan
Iste'dodning dardidir.
To'lg'og'ida bu alamning
Tanho ingroq- xonish bor.
Abadiyat
Jahannamning
Otashida yonish bor [2;368].

Doston kompozitsiyasi muqaddima va to'rt fasldan tashkil topgan. Shuningdek, "Abadiyat haqida rivoyat", "Fidoyilik to'g'risida rivoyat", "Jaholat to'g'risida rivoyat", "Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat", "Shoirilar va payg'ambarlar haqida rivoyat" berilgan bo'lib, ular asar syujetiga singdirib yuborilgan va kompozitsion tugallikni ta'minlagan.

"Abadiyat haqida rivoyat"da inson umri qisqa va abadiy emasligi, ammo ana shu qisqa umrni u mazmunli, ma'noli o'tkazishi shart. Inson o'zining ezgu ishlari bilan abadiy qoladi, biroq bu dunyodagi umri o'tkinchi, uning uchun dunyo-foniy. Poyonsiz sahroda sehrli chashmaga duch kelgan insonga g'oyibdan sado keladi: chashmaning suvini ichgan hayotda abadiy yashab qoladi. Odam o'ylaydi: nima qilsa ekan, abadiy yashashni tanlasinmi yoki foniy umrni? Yo'lda ketar ekan, u qumga ko'milgan boshni ko'radi. U o'sha chashmaning suvidan ichgan edim, endi bu dunyodan qutila olmayapman, meni o'ldir, deya iltijo qiladi. Shunda odam chashmaning suvini ichmasdan sabr-toqat qilganiga shukrona aytadi va qo'lidagi ko'za to'la suvni yerga ag'daradi [4]. Bu yerdan bir nihol o'sib chiqadi, shoxlari tarvaqaylab, ulkan chinorga aylanadi. Shundan chinor uzoq yashaydigan, inson esa foniy umr kechiradigan bo'ladi.

Shaxs erki dostonda yetakchi motiv sanaladi. “Fidoyilik haqida rivoyat”da bu g‘oyat ta’sirchan va badiiy yuksak darajada o‘z ifodasini topgan. Qadim Hindistonda eri o‘lsa, xotinini tiriklay birga qo‘shib ko‘mishgan. Rivoyatda bir yigit jangga ketar chog‘i shohga murojaat qilib, “agar jangda o‘lsam, mening yonimga xotinimni emas, balki jang qurolimni ko‘minglar, xotinim yashasin, chunki u naslimning davomi, kelajakni yaratuvchidir”, deydi. Uning vasiyati bajariladi, jangda halok bo‘lgach, uning yoniga qilichini ko‘madilar va ota-bobolarning ming yillik odatiga qarshi bosh ko‘targan kimsa qoralanadi. Ammo shoir ana shu tahqirlangan qabrga yukinishga da’vat etadi, uning jasoratini olqishlaydi:

Bu dunyoda nohaqlikka
Ko‘nmaganlar bor bo‘lsin.
Zo‘rlik ko‘rsang,
Qilma toqat,
Har boshda bir o‘lim bor.
Fidoyilar umri faqat
Bu dunyoda poydor! [2;387].

1926-yilda Kalkutta shahrida g‘alayon bo‘ladi. Bunda hindular bilan musulmonlar bir-biriga dushmanlik qilib, bir-birini o‘ldirishadi. Bu xunrezlikning sababchilari Yevropadan kelgan oq tanli bosqinchilar edi. G‘alayon qilayotgan xalq bir-birini mahv etayotganini kuzatib turgan bosqinchilar bundan huzur qilishadi, g‘alayonga chek qo‘yishni emas, balki uning yana uzoq davom etishini istashadi. Shunday paytda Nazrul Islom maydonga chiqadi. U o‘zining o‘tli she’rlari bilan hindu musulmonga haqiqiy dushmani kim ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, ularni bir-biri bilan do‘st bo‘lishga chorlaydi, hamjihat bo‘lib, ular orasiga nifoq solgan bosqinchini Hind ummoniga uloqtirishga da’vat etadi. Ammo aql ko‘zi ko‘r bo‘lgan olomon uni anglamaydi. Bosqinchilar esa bundan foydalanib, Nazrul Islomni hibsga olishadi, uni g‘alayonning tashkilotchisi, xalqni yo‘ldan ozdiruvchi deb ayblashadi. Uni zindon qilishadi. Uni qo‘riqlab borayotgan soqchilarning biri hindu, biri musulmon. Chunki bosqinchilar nihoyatda ustomon, ular ikki xalqni bir-biriga qayrab, sababchisini ham o‘zlaridan ekanligiga ishontirishadi. Shoirning dardlariga hech narsa davo bo‘lolmaydi, chunki bu elni mudom jaholat chulg‘ab olgan. “Jaholat haqida rivoyat”da uning qanchalik ayanchli va dahshatli oqibatlar borligi ko‘rsatib berilgan.

Jaholat hukmron davrda bir donishmand giyohlardan dori tayyorlab, ko‘p dardlarning oldini oladi, hatto ko‘r ko‘zlarning ravshan ko‘radigan bo‘lishiga erishadi. Ammo uni ko‘rolmagan hasadgo‘ylar ig‘vo qilishadi, bo‘hton yog‘dirishadi. Ollah bergan dardga shifo baxsh etish gunoh deb e‘lon qilishadi. Johil olomon bunga

ishonadi. Hakimni jazoga mustahiq etishadi. Uning ko'ksiga temirni cho'g' qilib bosishadi, bo'yniga og'ir tosh bog'lab, suvga cho'ktirishga qaror qilishadi. Biroq bulardan ham ko'ngillari to'lmagach, bosh hakam amri bilan uni bosh maydonga olib chiqib, ustunga bog'lab, yoqib yubormoqchi bo'lishadi. Olomon hakimning yondirilishini tomosha qiladi. Har kim qo'liga o'tin yo biror dona xas keltirib, olovga tashlay boshlaydi. Shunda bir chol bir g'aram poxol ko'tarib kelib olovga tashlaydi. Bir vaqtlar olovda yonayotgan hakim uning ko'r ko'zini ochgan edi. Ko'zi ochilgan chol unga ta'na qiladi, ko'zim ko'rligida odamlar muruvvatidan bahramand edim. Ko'zim ochilgach, bor qabohatlarni ko'rib, pushaymon bo'ldim, deydi. Hakim o'tda yonadi, o'zi bilan bor hikmatni olib ketadi. Oradan ancha zamonlar o'tib, buyuk fojea yuz berganligini odamlar anglashadi. Aql ko'zi ochilgan xalq hakimga aza ochib, yig'laydi va yillar o'tib, unga oltin haykal qo'yadilar. Ammo jaholat o'z ishini qilgan, xalq barcha dardlarning xaloskori bo'lgan o'z hakimidan ayrilgan edi.

Nazrul Islom ham ana shunday jaholatning qurboni bo'ladi. U xalqiga ozodlik, hurlik istadi, biroq xalq ozodlik mohiyatini anglamadi, u xalqlarni bir-biri bilan ahil bo'lishga chorladi, afsuski, orzulari amalga oshmadi. Ahil bo'lmagan xalqni bosqinchilar osongina o'ziga itoat ettira oladi. Nazrul Islomning xalqi ham ana shunday yana asorat sirtmog'ida qolaverdi. Shoir esa tutqunlikda azob chekib yotdi. Ozodlikka tashna shoir tutqunlikda bor ishonchu umiddan mosuvo bo'lib, aqlu hushidan judo bo'ldi. Yillar o'tib, Hindiston ozod bo'ldi. Ammo bu paytda Nazrul Islom aql-hushdan ayrilgan, ozod Vatanining iqbolini ko'rishdan, uning bag'ridagi shodlik sururidan bahra olishdan mahrum edi. Uni shahar va qishloqlar bo'ylab olib yurishadi, ozodlikka chorlovchi isyonkor she'rlarini aytishadi, biroq u bularning barchasiga hissiz qarab qo'yishdan nariga o'tolmaydi.

Nazrul Islom
Bu dunyoda
Yetmish besh yil
Yashadi.
Ammo
O'ttiz ikki yoshda
Bu dunyoni tashladi.
Shoir umri
Qoldi she'rda,
Qoldi
Yoniq dostonida.
Bitganlari
Uning- yerda,
Ruhi esa- osmonda. [2;436].

“Shoirilar va payg‘ambarlar haqida rivoyat” “Zamin sayyorasi” to‘plamiga kiritilgan dostonning muqobilida “Zohidlar va oriflar haqida hikoyat” sarlavhasi ostida berilgan. Har ikkalasining matni bir-biridan butunlayfarq qiladi. Hikoyatda zohidlar va oriflar o‘rtasidagi ixtilof va oriflarning hayotsevarligi, ozodlikka tashnaligi ulug‘lanadi. Hikoyatning tahrir etilgan muqobilida fikrlar yanada tiniqlashgan, mazmun salmoqdorligi ortgan.

XULOSA

Erkin Vohidov ijodi mavzu, g‘oya tomonidan ham, uslub, janrlar xilma-xilligi jihatidan ham nihoyatda tahlil talab. Shoir ijodining g‘oya va mazmuni nihoyatda boy. Muallif ijod namunasida ko‘plab dolzarb adabiy va abadiy muammolar bayonini anglashimiz mumkin. Shulardan biri milliy ozodlik masalasi hisoblanadi. Shoirning “Ruhlar isyoni” dostoni bu mavzuni yorqin bo‘yoqlarda ifodalagan asardir. Ushbu doston erk va ozodlikka qo‘yilgan badiiy haykal, ona tilimizning qudrati, jozibadorligi va nafisligini ko‘z-ko‘z etuvchi asardir. Yana ham diqqat bilan tahlil etilsa, halollik, ishonch, vatanga sadoqat, yolg‘onchilikdan chekinish, pok e‘tiqot, umrni xayrli ishlarga baxshida etish masalalari ham dostonida o‘z badiiy ifodasini topgan. Maqolada esa ulardan biri – ozodlik motivi haqida fikrlar va mulohazalar bayon etildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normatov Umarali, Ko‘ngillarga ko‘chgan she‘riyat (Erkin Vohidov ijodiy yo‘liga bir nazar), Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent, 2006 y.
2. Vohidov Erkin, Sadoqatnoma, Caylanma, II jildlik, ikkinchi jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986 y. B.
3. G‘afurov Ibrohim, Sharq Prometeyi, E.Vohidov, Zamin sayyorasi, so‘ngso‘z, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 20014 y.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-vohidovning-ruhlar-isyoni-dostonida-xarakter-va-ijtimoiy-muhit-talqini>